

“Mikrokreditbank”
aksiyadorlik-tijorat banki
Boshqaruvining
2026-yil “21” iyul dagi
188-4-sonli qarori bilan
“TASDIQLANGAN”

Boshqaruv raisi
M. Avazov
(ro'yxat raqami VII-20/509)
2026-yil “21” avgust



**““Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankining korrupsiyaga qarshi
kurashish sohasida sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan
hamkorlik qilish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom**
(yangi tahrirda)

Toshkent – 2026



“Mikrokreditbank” ATB
Boshqaruvining
2026-yil “21” aprel 108-4 - sonli qaroriga
ilova

““Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qilish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom

1-bob. Umumiy qoidalar

1. ““Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qilish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom (keyingi o‘rinlarda — Nizom) O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining 2026-yil 19-apreldagi 19-son, Davlat xavfsizlik xizmatining 2026-yil 27-iyundagi 9-son, Ichki ishlar vazirligining 2026-yil 23-apreldagi 32QQ-son, Bosh prokuraturaning 2026-yil 24-apreldagi 27-son va Oliy sudning 2026-yil 22-apreldagi 153-son qarorlariga asosan tasdiqlangan “Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalarining sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qilish hamda korrupsiya bilan bog‘liq huquqbuzarliklar haqida xabar berishning ichki kanallarini yuritish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom, O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi, “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi, “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonunlari va korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi sohasidagi boshqa normativ hujjatlar hamda “Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankining (keyingi o‘rinlarda – bank) ichki qoidalariga muvofiq ishlab chiqilgan.

2. Mazkur Nizom bankning sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qilishga doir masalalari tartibini belgilaydi.

3. Mazkur Nizom bankning sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida samarali va natijador hamkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yishni ta‘minlashga qaratilgan.

4. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar – Bosh prokuratura, Davlat xavfsizlik xizmati, Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti, Ichki ishlar vazirligi va ularning hududiy tuzilmalari.

Sud tizimi – O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, harbiy sudlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, jinoyat ishlari bo'yicha tuman, shahar sudlari.

2-bob. Bankning sudlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorligi

5. Bankning sudlar bilan hamkorligi o'z tizimida sodir etilgan korrupsiyaviy jinoyatlarning tahlilini o'tkazish va tegishli chora-tadbirlarni belgilash maqsadida o'zaro ma'lumot almashish shaklida amalga oshiriladi.

6. Bank xodimlari tomonidan sodir etilib, sudlarda ko'rib chiqilgan korrupsiyaga oid ma'muriy huquqbuzarliklar va jinoyatlar statistikasi hamda sud qarori (hukmi)ni tegishli sud tizimiga so'rov yuborish orqali oladi.

7. Bank tomonidan korrupsiyaviy huquqbuzarlik va jinoyatlar statistikasi hamda sud qarori (hukmi) ko'rib chiqiladi, shuningdek, ushbu huquqbuzarlik va jinoyatlarni sodir etilishining sabab va shart-sharoitlari chuqur tahlil qilinadi.

8. Tahlillar asosida ushbu korrupsiyaviy jinoyatni keltirib chiqargan omillarni bartaraf etish hamda kelgusida sodir etilishining oldini olish maqsadida tegishli chora-tadbirlar belgilanadi.

9. Bank huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan quyidagi yo'nalishlarda hamkorlik qiladi:

korruptsiya holatini tizimli tahlil qilish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini aniqlash hamda ularni bartaraf etish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

korruptsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish;

korruptsiya bilan bog'liq huquqbuzarliklar haqida huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar berish;

budjet mablag'lari, xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlarning qarzlaridan foydalanish, davlat aktivlarini realizatsiya qilish va davlat xaridlari sohasida korrupsiyaga qarshi nazorat tizimining samaradorligini tahlil qilish, shuningdek, uni takomillashtirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish.

10. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik quyidagi asosiy shakllarda amalga oshiriladi:

ma'lumot almashinuvi;

qonunbuzilishlar haqida xabar berish;

hamkorlikdagi monitoring va nazorat tadbirlarini o'tkazish;

muvofiglashtiruvchi organlar tashabbusiga ko'ra monitoring va nazorat tadbirlarini o'tkazish;

boshqa turdagi hamkorlik tadbirlarini amalga oshirish.

O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari va bankning ichki qoidalar bilan hamkorlikni amalga oshirishning boshqa shakllari ham belgilanishi mumkin.

3-bob. Ma'lumot almashinuvi

11. Bankning huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan ma'lumot almashinuvi doimiy ravishda quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan o'tkazilayotgan tekshiruvlar, surishtiruv va tergov doirasida huquqni muhofaza qiluvchi organing yozma so'roviga asosan, ma'lumotlar va hujjatlar nusxalarini taqdim etish;

qo'shimcha majlislar, ishchi guruhlar yig'ilishlari va maslahatlashuvlar o'tkazish;

o'zaro qiziqish bildirilgan masalalar bo'yicha statistik ma'lumotlarni almashish;

korruptsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida ko'rilgan chora-tadbirlar to'g'risida ma'lumot almashish;

korruptsiya faktlari bo'yicha jinoyat ishlari, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar, shuningdek, korruptsiya faktlariga munosabat bildirish bo'yicha ko'rilgan choralar to'g'risida ma'lumot almashish.

12. Davlat siri, bank siri, tijorat siri va boshqa konfidensial ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasining "Davlat sirlari to'g'risida", "Bank siri to'g'risida", "Tijorat siri to'g'risida"gi Qonunlari va boshqa qonun hujjatlari hamda bankning ichki qoidalariga muvofiq beriladi.

4-bob. Qonunbuzilishlar haqida xabar berish

13. Qonunbuzilishlar haqida xabar berish majburiyati bankning Yuridik, Ichki audit, Ichki nazorat va sanksiyaviy komplayens, Xavfsizlik va axborotlarni muhofaza qilish hamda Korruptsiyaga qarshi nazorat departamentlari (keyingi o'rinlarda – vakolatli bo'linmalar) zimmasiga yuklanadi.

14. Vakolatli bo'linmalar bank va uning hududiy bo'linmalarida korruptsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish, korruptsiyaviy va boshqa qonunbuzarliklarga qarshi o'z vaqtida tezkor choralarni ko'rish maqsadida huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yadi.

15. Vakolatli bo'linmalar o'z vakolati doirasida bankning tarkibiy va hududiy bo'linmalari faoliyatini monitoring va nazorat qiladi.

Monitoring va nazorat doirasida tekshiruvlar, o'rganishlar, tahlillar va boshqa nazorat tadbirlarini o'tkazadi.

16. Bankning tarkibiy va hududiy bo'linmalari qonunbuzilishlar haqida ma'lumotga ega bo'lgan taqdirda, bu haqda zudlik bilan keyingi ish kunidan kechiktirmasdan vakolatli bo'linmalarga xabar berishi hamda qonunbuzilish faktini tasdiqlovchi o'zlarida mavjud barcha ma'lumotlarni vakolatli bo'linmalarga yuborishi lozim.

17. Bank xodimlari, uning mijozlari va kontragentlari (yoki ularning vakillari) o'zlariga ma'lum bo'lgan sodir etilgan yoki sodir etilishi rejalashtirilayotgan qonunbuzarliklar haqida, ushbu Nizomning 10-bandiga amal qilmasdan, vakolatli organlarga yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlarga shaxsan xabar berish huquqiga ega.

Bunda, bank va uning mansabdor shaxslari mazkur xodimlarga nisbatan intizomiy va boshqa jazo choralari qo'llamasligini kafolatlaydi.

18. Vakolatli bo'linmalar monitoring va nazoratni amalga oshirish natijasida aniqlangan qonunbuzilishlarni, shuningdek, bank tarkibiy va hududiy bo'linmalari, bank xodimlari, mijozlari va kontragentlari (yoki uning vakillari)ning qonunbuzilish haqidagi xabarlari (shu jumladan, anonim xabarlar)ni tezkorlik bilan o'rganib chiqadi, zarur hollarda qo'shimcha ma'lumotlar va dalillar to'playdi, ushbu maqsadda monitoring va nazorat tadbirlarini (xodim faoliyatini kuzatuv ostiga olish, xodim tomonidan o'tgan davrda amalga oshirilgan ishlarni tekshirish, "sirli mijoz" tadbiri, xodimning hamkasblari hamda u xizmat ko'rsatgan mijozlar va kontragentlar vakillaridan tushuntirishlar olish va h.k) o'tkazadi.

19. Qonunbuzilish faktlari o'z tasdig'ini topgach, shuningdek, qonunbuzilish fakti bo'yicha yetarli dalillar va ma'lumotlar to'plangach, **uch ish kuni** ichida tegishliligi bo'yicha, ya'ni bank va uning hududiy bo'linma xodimlari, korporativ maslahatchilari, fuqarolik – huquqiy shartnoma asosida jalb etilgan mutaxassislar tomonidan sodir etilgan/etilayotgan qonunbuzilish faktlari haqida bank Boshqaruv raisiga, bank Aksiyadorlari, bank Kuzatuv kengashi hamda uning qo'mita va komissiyalari vakillari tomonidan sodir etilgan/etilayotgan qonunbuzilish faktlari haqida bank Kuzatuv kengashiga bildirishnoma va unga ilova qilingan dalillar va ma'lumotlar kiritiladi.

20. Kiritilgan bildirishnomalar tegishliligi bo'yicha bank Boshqaruv raisi, bank Kuzatuv kengashi raisi tomonidan ko'rib chiqilib, rozilik ustxati (rezolyutsiya) qo'yilganidan so'ng vakolatli bo'linma bank Boshqaruv raisi yoki uning o'rinbosari imzosi bilan tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organlarga qonunbuzilish haqida murojaat yuboradi.

21. Vakolatli bo'linmalar bank murojaatlarini o'rganishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ko'maklashadi, zarur hollarda bank rahbariyati ruxsati bilan

ushbu organlarning tekshiruv o'tkazishini tashkil etadi, qonunbuzilish faktlari aks etgan hujjatlar va ma'lumotlarning but holda saqlanishini ta'minlaydi.

22. Huquqni muhofaza qiluvchi organning bank murojaatini o'rganish natijasi bo'yicha qabul qilgan qaroriga nisbatan e'tiroz bo'lgan taqdirda, bank yuqori turuvchi tashkilotlarga muvofiqlashtiruvchi organ qabul qilgan qaror ustidan belgilangan tartibda shikoyat kiritishga haqli.

23. Huquqni muhofaza qiluvchi organ tomonidan bank murojaatini o'rganib chiqish natijasi bo'yicha jinoyat ishi qo'zg'atilgan taqdirda, bank jinoyat-protsessual qonun hujjatlarida belgilangan tartibda, huquqni muhofaza qiluvchi organ qaroriga asosan ayblanuvchi, sudlanuvchi sifatida jalb qilingan shaxslarni lavozimdan (ishdan) chetlashtirish, jinoyat ishi doirasida da'voni ta'minlash choralari ko'rish va boshqa protsessual huquq va majburiyatlarni amalga oshiradi.

5-bob. Hamkorlikda monitoring va nazorat tadbirlarini o'tkazish

24. Bank va uning hududiy bo'linmalari, zarur hollarda, huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikda monitoring va nazorat tadbirlarini o'tkazishi mumkin.

25. Hamkorlikdagi monitoring va nazorat tadbirlari quyidagi masala va yo'nalishlar bo'yicha o'tkaziladi:

ajratilgan kreditlarning maqsadli sarflanishi;

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya qilinishi;

bank xodimlari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi hamda huquqbuzurliklar profilaktikasi to'g'risidagi qonun hujjatlariga, shuningdek, ushbu sohadagi bank ichki qoidalariga rioya qilinishi.

26. Monitoring va nazorat tadbirlarining vazifalari:

bank va uning hududiy bo'linmalari faoliyatida qonuniylikni ta'minlash, huquqbuzurliklarning oldini olish;

bank xizmatlarini ko'rsatishda zamonaviy, yuqori standartlarning joriy qilinishi va unga rioya qilinishini ta'minlash, bank xizmatlarini ko'rsatishda korrupsiya va boshqa qonunbuzilish holatlariga yo'l qo'ymaslik;

bank xodimlarining manfaatlar to'qnashuvini aniqlash va uni bartaraf qilish;

bank xodimlarining mijozlar va kontragentlarning jinoiy faoliyatiga sherikligi holatlarini aniqlash va uni bartaraf etish;

jinoiy faoliyat doirasida pul mablag'lari harakati faktlarini aniqlash va hujjatlashtirish;

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni aniqlash, ularga taqiq qo'yish, shuningdek, ular bilan bog'liq operatsiyalar (bitimlar)ni to'xtatish;

xalqaro jinoiy aloqalar, ularning moliyaviy va iqtisodiy asoslarini fosh qilish, jinoiy sxemalarning turlari va xususiyatlari haqida bilimlarni oshirish.

27. Bank xodimlarining huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikdagi monitoring va nazorat tadbirlari o'tkazishi ularning mustaqilligiga, monitoring va nazorat usullarini erkin tanlashiga, shuningdek, o'z lavozim majburiyatlarini amalga oshirishiga to'sqinlik qilmaydi.

28. Hamkorlikdagi monitoring va nazorat tadbirlarini o'tkazish uchun tuziladigan ishchi guruhlariga rahbarlik va muvofiqlashtirish masalasi ushbu ishchi guruhni tuzgan tashkilot tomonidan hal etiladi.

29. Bank yoki uning hududiy bo'linma rahbarining farmoyishi yoxud huquqni muhofaza qiluvchi organning so'roviga asosan, ishchi guruhga bank xodimini yuborish to'g'risidagi bank xati hamkorlikdagi monitoring va nazorat tadbirlarini o'tkazish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Ishchi guruhga yuborilgan xodimning yetarli bilim va tajribaga egaligi uchun ushbu xodimni yuborish taklifini bergan bank va uning hududiy bo'linma rahbari javobgardir.

30. Bank yoki uning hududiy bo'linma rahbari huquqni muhofaza qiluvchi organning hamkorlikdagi monitoring va nazorat tadbirlarini o'tkazish uchun tuziladigan ishchi guruhlariga bank xodimini yuborish quyidagi holatlarda rad etilishi mumkin:

huquqni muhofaza qiluvchi organning so'rovida ko'rsatilgan masalalar qonunga xilof bo'lsa yoki so'rovda ko'rsatilgan tadbirlarni amalga oshirish qonun buzilishiga olib kelsa;

huquqni muhofaza qiluvchi organning so'rovi vakolatsiz shaxs tomonidan imzolangan yoki so'rovda tekshirilishi rejalashtirilgan yuridik va jismoniy shaxslarning huquqbuzarlik sodir etganligi fakti yetarli asoslantirilmagan bo'lsa;

huquqni muhofaza qiluvchi organning so'rovida ko'rsatilgan masalalar bank vakolati doirasiga kirmasa;

hamkorlikdagi monitoring va nazorat tadbirlarini o'tkazish bank xodimlarining hayoti va sog'lig'i uchun bevosita xavf solishi yaqqol namoyon bo'lsa.

31. Hamkorlikdagi monitoring va nazorat tadbirlarini o'tkazish yakunlari bo'yicha tuziladigan hujjatlar (ma'lumotnoma, dalolatnoma, bayonnoma va boshqalar), shuningdek, qabul qilinadigan qarorlar qonun hujjatlariga hamda bank ichki qoidalariga muvofiq bo'lishi lozim.

Hamkorlikdagi monitoring va nazorat tadbirlarini o'tkazish yakunlari bo'yicha tuziladigan hujjatlar va qabul qilinadigan qarorlarning bir nusxasi ijro etish va tegishli choralar ko'rish uchun bankka yuboriladi.

6-bob. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar tashabbusiga ko'ra monitoring va nazorat tadbirlarini o'tkazish

32. Zarur hollarda qo'zg'atilgan jinoyat ishi doirasida surishtiruv, tergov o'tkazish davomida sud ajrimi, prokuror yoki tergovchi qaroriga asosan, huquqni muhofaza qiluvchi organlar tekshiruv o'tkazish to'g'risida yuborgan so'roviga muvofiq, bank tomonidan xizmat tekshiruvi, monitoring va nazorat tadbirlari o'tkazilishi mumkin.

Ushbu tadbirlarni o'tkazish uchun bank va uning hududiy bo'linmalari rahbariyati tegishli farmoyish qabul qilishi mumkin, ushbu farmoyishda xizmat tekshiruvi, monitoring va nazorat tadbirlari maqsadi, obyekti, predmeti, muddatlari hamda jalb qilinadigan bank xodimlari ko'rsatiladi.

33. Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning tekshiruv o'tkazish to'g'risidagi so'roviga muvofiq, bank xodimlari mazkur organlar o'tkazayotgan tekshiruvlarga mutaxassis va ekspert sifatida jalb qilinishi, shuningdek, xizmat safarlariga yuborilishi mumkin.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar tekshiruviga jalb qilingan bank xodimlari tekshiruvlar va xizmat safarlariga ish vaqti davomida qatnashadi.

7-bob. Boshqa turdagi hamkorlik tadbirlarini amalga oshirish

34. Bank huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikda o'zaro qiziqish mavjud masalalar va muammolar bo'yicha hamkorlikda o'rganishlar, tahlillar o'tkazish va hamkorlikdagi tahliliy materiallar tayyorlaydi.

Tahliliy materiallarni tayyorlashda tashabbuskor taraf ikkinchi tarafga zarur ma'lumotlarni taqdim qilish, shuningdek, hamkorlikdagi ishlarni amalga oshirishda mutaxassis ajratish to'g'risida so'rov bilan chiqishga haqli.

35. Bank, bank xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi, huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risidagi, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlari haqidagi bilimlari va malakasini oshirish maqsadida huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikda tushuntirish va targ'ibot ishlarini tashkil etadi.

Bunday tushuntirish va targ'ibot ishlari:

bank xodimlari uchun seminarlar, seminar-treninglar, o'quv mashg'ulotlari, davra suhbatlari va konferensiyalar o'tkazish;

hamkorlikdagi o'quv-ko'rgazma materiallarini tayyorlash, ogohlikni oshirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish;

mijozlar orasida turli so'rovnomalar o'tkazish;

ommaviy axborot vositalarida materiallar e'lon qilish, lavha va chiqishlar tashkil etish shaklida amalga oshiriladi.

**8-bob. Bankning vakolatli bo'linmalari tomonidan o'tkazilgan
o'rganish, monitoring va xizmat tekshiruvlarida korrupsiyaviy jinoyat yoki
huquqbuzarlik alomatlari aniqlangan holatlar bo'yicha
hujjatlarni taqdim etish va ko'rib chiqish**

36. Bankning vakolatli bo'linmalari tomonidan o'z vakolatlari doirasida o'tkazilgan o'rganish, monitoring va xizmat tekshiruvlarida (keyingi o'rinlarda - o'rganishlar) jinoyat alomatlari aniqlangan taqdirda yoki huquqbuzarlik alomatlari bo'yicha tergovga qadar tekshirish o'tkazish talab etilgan hollarda tegishli yig'ma hujjatlar (ma'lumotnoma, dalolatnoma, oraliq dalolatnoma va h.k.), ular rasmiylashtirilgan kundan boshlab, **o'n kundan** kechiktirmasdan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 322 va 326-moddalari va boshqa qonunchilikka muvofiq, huquqiy baho berish uchun huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuboriladi.

Agarda, vakolatli bo'linmalar o'tkazgan o'rganishlarda aybdor shaxslarning harakatlarida huquqni muhofaza qiluvchi organlar vakolatiga tegishli bo'lmagan ma'muriy yoki intizomiy huquqbuzarlik alomatlari aniqlangan taqdirda, bu haqidagi to'plangan hujjatlarni tegishliligi bo'yicha boshqa vakolatli organlarga yuboradi.

37. Korrupsiyaga oid jinoyat alomatlari mavjud materiallarni o'z vaqtida va to'liq Bosh prokuraturaga yuborilishiga bankning Korrupsiyaga qarshi nazorat departamenti mas'ul va javobgar bo'ladi.

38. Bankning vakolatli bo'linmalari tomonidan o'tkaziladigan o'rganishlarda quyidagi yo'nalishlarda aniqlangan jinoyat yoki huquqbuzarlik alomatlari bo'yicha to'plangan hujjatlar Bosh prokuraturaga yuboriladi:

davlat xaridlari to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya qilinmaganligi;

aybdorga ishonib topshirilgan yoki uning ixtiyorida bo'lgan o'zganing mulkini o'zlashtirish yoki rastrata qilish yo'li bilan talon-toroj qilinganligi;

O'zbekiston Respublikasi tomonidan yoki uning kafolati ostida jalb qilingan kreditlardan (qarzlardan), shuningdek, insonparvarlik yordami va texnik ko'maklashish mablag'laridan ularni olish shartlariga muvofiq bo'lmagan maqsadlarda foydalanilganligi;

fuqarolarning huquqlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga zarar yoki jiddiy ziyon yetkazilishiga sabab bo'lgan

mansab vakolatini suiiste'mol qilish, mansab vakolati doirasidan chetga chiqish, mansabga sovuqqonlik bilan qarash holatlari sodir etilganligi;

mansabdor shaxsning g'arazgo'ylik yoki boshqa manfaatlarni ko'zlab, rasmiy hujjatlarga bila turib soxta ma'lumotlar va yozuvlar kiritganligi, hujjatlarni qalbakilashtirganligi yoki soxta hujjatlar tuzganligi va taqdim etganligi;

mansabdor shaxslar harakatlarida Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan boshqa jinoyat yoki huquqbuzarlik alomatlari mavjudligi.

39. Bankning vakolatli bo'linmalari tomonidan o'tkazilgan o'rganishlar natijalari bo'yicha to'plangan quyidagi hujjatlar Bosh prokuraturaga yuboriladi:

a) quyidagilarni majburiy ko'rsatgan holda o'tkazilgan o'rganishlar natijalari bo'yicha tuzilgan ma'lumotnoma yoki dalolatnoma:

o'rganish obyekting to'liq nomi, jinoyat yoki huquqbuzarlik alomatlari aniqlangan davr uchun mas'ul bo'lgan shaxsning lavozimi, familiyasi, ismi va otasining ismi;

qonun hujjatlarining buzilgan normalarini aniq ko'rsatgan holda o'rganish vaqtida aniqlangan qonun buzilishi va kamchiliklar faktlari (qonun buzilishi holatlari aniq va tushunarli tarzda bayon etilishi kerak);

b) mansabdor (mas'ul) shaxslarni lavozimga tayinlash haqidagi tegishli tarzda tasdiqlangan buyruqlarning (farmoyish, qaror) nusxalari;

d) qonun buzilishiga yo'l qo'ygan shaxslarning xizmat vazifalarini belgilovchi yo'riqnoma, buyruq, mehnat shartnomasi yoki boshqa hujjatlarning tegishli tarzda tasdiqlangan nusxalari;

e) bank faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar haqida ma'lumot;

f) qonun hujjatlari buzilganligini tasdiqlovchi hujjatlarning (buyruq, qaror, oldi-sotdi shartnomalari, savdo bayonnomalari, reyestrda ko'chirma, to'lov varaqasi, aloqa xati va boshqalar) asli yoki tegishli tarzda tasdiqlangan nusxasi yoxud ko'chirmasi;

g) qonun buzilishiga yo'l qo'ygan shaxslarning yozma tushuntirishlari va e'tirozlarining asl nusxalari, tushuntirish berishdan bosh tortgan hollarda bu haqida tuzilgan dalolatnoma;

h) o'rganish bo'yicha mansabdor shaxslar tomonidan keltirilgan vajlar (yozma e'tirozlar);

i) o'rganish bo'yicha mansabdor shaxsning ma'lumotnoma yoki dalolatnomani (dalolatnoma, oraliq dalolatnoma) imzolashdan yoxud qabul qilishdan bosh tortgan hollarda ularning nusxalari tegishli mansabdor shaxs yoki tashkilotga yuborilganligini tasdiqlovchi hujjat.

Shuningdek, aniqlangan qonun buzilishi faktini tasdiqlash maqsadida boshqa hujjatlar ham ilova qilinishi mumkin.

40. Hujjatlar qayta rasmiylashtirish uchun Bosh prokuratura tomonidan qaytarilgan taqdirda, bankning vakolatli bo'linmalari o'n kunlik muddatda o'rganish materialidagi kamchiliklarni bartaraf etib, Bosh prokuraturaga qayta taqdim etadi.

41. Qonun buzilishi holatlari yuzasidan to'plangan hujjatlar Bosh prokuraturaga bank Boshqaruv raisi yoki uning o'rinbosarlarining xati bilan yuboriladi.

42. Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning so'roviga ko'ra, qonun buzilishi yuzasidan to'plangan materiallarga taalluqli bo'lgan boshqa hujjatlar ham taqdim qilinishi mumkin.

9-bob. Yakuniy qoidalar

43. Bank xodimlari o'z xizmat majburiyatlarini bajarishda qonunga xilof xatti-harakatlarini amalga oshirganda, qonun hujjatlariga muvofiq shaxsiy javobgarlikka tortiladi.

44. Mazkur Nizomga amal qilmagan aybdor shaxslar bank ichki qoidalariga muvofiq, intizomiy va boshqa javobgarlikka tortiladi.

45. Mazkur Nizom bank Boshqaruvi qarori bilan tasdiqlanib, o'rnatilgan tartibda ro'yxatga olingandan so'ng kuchga kiradi.

46. Mazkur Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bank Boshqaruvi qaroriga muvofiq, belgilangan tartibda amalga oshiriladi.


47. Mazkur Nizom murojaatlar va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi o'zgarganda qayta ko'rib chiqilishi lozim.

48. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligining o'zgarishi natijasida, Nizomning ayrim bandlari unga zid bo'lib yoki haqiqiy bo'lmay qolsa, mazkur Nizomga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgunga qadar amaldagi qonunchilik talablariga rioya etiladi.

49. Mazkur Nizom kuchga kirgan kundan bank Boshqaruvining 2020-yil 30-noyabrdagi 87-2-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida muvofiqlashtiruvchi organlar bilan hamkorlik qilish tartibi to'g'risida"gi Nizomi o'z kuchini yo'qotadi.

B. Ibratov

E. Ibratov 11



11008